O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 930.25(575.1):929

Azizbek NAZAROV,
Dotsent, PhD, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: azizbek_888@mail.ru, ORCID: 0009-0007-4657-5861

T.f.d. (DSc) M.Darmonova taqrizi asosida

THE PERSONAL FONDS OF HISTORIANS IN THE NATIONAL ARCHIVES OF UZBEKISTAN

Annotation

This article examines the personal archival fonds of historians preserved in the National Archives of Uzbekistan from the perspective of archival source studies. It analyzes the composition and state of systematization of archival documents reflecting the scholarly and pedagogical activities, historical research, and intellectual legacy of L.M. Landa, A.Y. Sokolov, A.Kh. Babakhodjayev, T.G. Abayeva, L.V. Gentshke, G.L. Dmitriyev, Y.G. Gulyamov, K.Sh. Shoniyozov, P.G. Kim and R.Kh. Aminova. In addition, based on the archival inventories, the article highlights the scientific and technical processing of documents, their structural arrangement, and their organization into individual archival files within the respective personal fonds.

Keywords: Central Asian State University, archive, personal fonds, archival file, inventory, document, scientific and technical processing, system, research, history, archaeology.

ЛИЧНЫЕ ФОНДЫ ИСТОРИКОВ-УЧЁНЫХ В НАЦИОНАЛЬНОМ АРХИВЕ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье личные фонды историков-учёных, хранящиеся в Национальном архиве Узбекистана, исследуются с точки зрения архивного источниковедения. Проанализированы состав и состояние систематизации архивных документов, отражающих научно-педагогическую деятельность, исторические исследования и научное наследие Л.М. Ланды, А.Я. Соколова, А.Х. Бабаходжаева, Т.Г. Абаевой, Л.В. Гентшке, Г.Л. Дмитриева, Я.Г. Гулямова, К.Ш. Шаниязова, П.Г. Кима и Р.Х. Аминовой. Кроме того, на основе фондовых описей освещены вопросы научно-технической обработки документов, их структурирования и систематизации по делам в составе соответствующих личных фондов.

Ключевые слова: Среднеазиатский государственный университет, архив, личные фонды, дело, опись, документ, научно-техническая обработка, система, исследование, история, археология.

O‘ZBEKISTON MILLIY ARXIVIDAGI TARIXCHI OLIMLARNING SHAXSIY FONDLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Milliy arxividagi tarixchi olimlarning shaxsiy fondlari arxiv manbashunosligi jihatidan o‘rganilgan. L.M. Landa, A.Y. Sokolov, A.X. Babaxodjayev, T.G. Abayeva, L.V. Gentshke, G.L. Dmitriyev, Y.G‘. G‘ulomov, K.Sh. Shoniyozov, P.G. Kim va R.X. Aminovalarning ilmiy-pedagogik faoliyati, tarixiy tadqiqotlari va ilmiy merosini aks ettiruvchi arxiv hujjatlarining tarkibi hamda tizimlashtirilish holati tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur shaxsiy fondlardagi hujjatlarning ilmiy-texnik jihatdan qayta ishlanishi, ularning tarkibiy qismlarga ajratilishi va yig‘majildlar bo‘yicha tartibga solinishi fond ro‘yxatlari asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo Davlat universiteti, arxiv, shaxsiy fondlar, yig‘majild, ro‘yxat, hujjat, ilmiy-texnik, tizim, tadqiqot, tarix, arxeologiya.

Kirish. Vatan tarixini haqqoniy manbalar asosida yoritish masalasi tarixchilar oldida turgan dolzarb vazifalar hisoblanadi. Jumladan, barcha tarixiy fanlar bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlarni metodologik jihatdan takomillashtirish, manbaviy asosini kuchaytirish talabi ilgari surilmoqda. Hujjatlarning tizimli to‘planishi tarixiy jarayonlarni shaxslar taqdiri orqali tahlil qilish, ilm-fan rivojining uzviyligini tadqiq qilish imkonini beradi. Shu sababli tarixiy izlanishlarga arxiv hujjatlarini jalb qilish jarayoni alohida qimmatga ega. Arxiv hujjatlari ma’lumotlari turli tarixiy davrlarga tegishli bo‘lib, O‘zbekiston Milliy arxivida saqalanuvchi shaxsiy fondlarni tadqiqotlarga jalb qilish orqali tarixchi olimlarning faoliyati hamda ilmiy me’rosi bilan tanishish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda xorijlik hamda mahalliy tadqiqotchilar shaxsiy fond hujjatlarini ilmiy tadqiqotlar orqali o‘rganishmoqda. So‘nggi yillarda shaxsiy fondlarning o‘rganilishi masalasida V.G. Iofe, O.U. Xasanova, V.L. Gentshke, T.I.Doroshenko, D. Mirsaidovalarning ilmiy tadqiqotlari ahamiyatli hisoblanadi. Xususan, Valeriy Iofe “O‘zbekiston Milliy arxivi shaxsiy fondlari – O‘zbekistonda madaniyat va san’at rivojlanishi tarixiga oid qimmatli manba” nomli maqolasida **O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan** O‘zbekistonning taniqli olimlari, madaniyat arboblari, yirik bibliograf va kutubxonashunoslarga tegishli bir qator shaxsiy fondlarni tahlil qilgan[1].

V.L. Gentshke, T.I. Doroshenkolarning “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining shaxsiy fondlari” nomli maqolasi *Vestnik arxivista* jurnalida nashr etilgan. Maqolada O‘zbekiston Milliy arxividagi **shaxsiy fondlar,** ularning shakllanish dinamikasi, fondlarni komplektlash jarayonidagi muammolar hamda O‘rta Osiyo va Rossiya tarixiga oid hujjatlar haqida ma’lumot berilgan[2].

O‘zbekiston milliy arxividagi shaxsiy fondlarga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar juda kam. Shuning uchun shaxsiy kelib chiqishga ega arxiv fondlarini o‘rganish O‘zbekistonning taniqli fan va madaniyat namoyandalarining

faoliyati haqidagi tasavvurlarni sezilarli darajada boyitish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston Milliy arxivi R-2823 fondida 320 ta yig‘majild bo‘lib, tarix fanlari doktori *Leonid Mixaylovich Landa* faoliyatiga oid hujjatlar mavjud. 1943-yilda u O‘rta Osiyo davlat universitetini tamomlagan va O‘zSSR Ichki ishlar vazirligining Arxiv bo‘limiga ishga yuborilgan. Bu yerda 1952-yil may oyigacha faoliyat yuritgan. Dastlab katta ilmiy xodim lavozimida ishlagan, 1944-yildan boshlab esa O‘zSSR Markaziy davlat arxivining – Oktyabr inqilobi va sotsialistik qurilish arxivining boshlig‘i lavozimida faoliyat olib borgan.

1957-yil sentyabr oyidan 1959-yil 15-fevralgacha L.M. Landa O‘zSSR Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya institutida ilmiy kotib lavozimida ishlagan. 1959-yil 16-fevraldan 1971-yilgacha esa mazkur institutning katta ilmiy xodimi bo‘lgan.

U O‘zbekistonning sovet davri tarixiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan hamda Oktyabr inqilobi, ishchi nazorati, kasaba uyushmalari harakati, xorijiy intervensiya va fuqarolar urushi masalalariga bag‘ishlangan ko‘plab maqolalarni nashr ettirgan. Uning ilmiy hujjatlari 1971-yilda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida davlat saqloviga topshirilgan. Hujjatlarni L.M. Landaning qizi – V.L. Landa 1994-yil noyabr oyida arxivga topshirgan.

1995-yilda hujjatlar ilmiy-texnik jihatdan qayta ishlanib, quyidagi 7 ta bo‘lim asosida tizimlashtirilgan: L.M. Landaning ilmiy faoliyatiga oid materiallar, L.M. Landaning xizmat faoliyatiga oid materiallar, L.M. Landaga oid biografik materiallar, yozishmalar, L.M. Landa tomonidan o‘z tadqiqotlari va uni qiziqtirgan mavzular bo‘yicha to‘plangan materiallar, L.M. Landa ishtirokida yozilgan ishlarga berilgan taqrizlar, L.M. Landaning qarindoshlariga oid materiallar[3].

R-2849 fondida 177 ta yig‘majild bo‘lib, tarix fanlari doktori *Aleksey Yakovlevich Sokolovning* 1951–1997-yillarga oid shaxsiy hujjatlari mavjud.

1950-yilda O‘rta Osiyo davlat universitetida aspiranturani tugatgach, universitet ilmiy kotibi etib tayinlangan va bir vaqtning o‘zida o‘qituvchilik faoliyatini davom ettirgan. 50 yillik ilmiy faoliyati davomida A.Y. Sokolov tomonidan qariyb 80 ta ilmiy va ilmiy-metodik ish nashr etilgan.

A.Y. Sokolovning 1951–1997-yillardagi hujjatli materiallari 1999-yilda Rossiyaga doimiy yashash uchun ketishidan oldin O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxiviga uning o‘zi tomonidan topshirilgan.

O‘sha yili hujjatlar ilmiy-texnik jihatdan qayta ishlanib, 177 ta yig‘majildni o‘z ichiga olgan 1-fond ro‘yxati tuzilgan. Hujjatlar quyidagi tartibda tizimlashtirilgan: A.Y. Sokolovning ilmiy ishlari, xizmat va pedagogik faoliyatiga oid materiallar, jamoat faoliyatiga oid materiallar, biografik materiallari, xatlari, u haqidagi haqida maqolalar[4].

R-2850 fondda 226 ta yig‘majild bo‘lib, mashhur sharqshunos, davlat arbobi va jamoat arbobi, diplomat, tarix fanlari doktori, professor *Abdusamat Xonturayevich Babaxodjayev* faoliyatiga oid shaxsiy hujjatlardan iborat. A.X. Babakhodjaev Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbaridan nutq so‘zlagan birinchi o‘zbek diplomati bo‘lgan.

A.X. Babaxodjayev Moskvada davlat diplomatik xodimlarini tayyorlash kurslarini tamomlagan. 1945–1947-yillarda vazir o‘rinbosari, 1948–1952-yillarda esa SSSR Tashqi ishlar vaziri hamda bir vaqtning o‘zida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Iqtisodiyot instituti direktori lavozimlarida faoliyat olib borgan.

1950-yilda A.X. Babaxodjayev SSSR delegatsiyasi tarkibida BMT Bosh Assambleyasining V sessiyasida ishtirok etgan. Uning BMT minbaridagi nutqi muhim tarixiy voqea bo‘lib, BMT minbaridan ilk bor O‘zbekiston vakilining ovozi yangragan. Bu haqda F. Isxakovning “Diplomat, olim, fuqaro” nomli maqolasida batafsil ma’lumot berilgan[5]. U 60 ta ilmiy ish muallifi bo‘lib, uning ilmiy asarlari xorijda ham keng tanilgan. Uning oltita ilmiy asari Nyu-York, London, Dehli va Kobul shaharlarida nashr etilgan.

A.X. Babaxodjayevning 1918–1995-yillarni qamrab oluvchi hujjatli materiallari (asosan 1918–1970-yillarga oid hujjatlar, shuningdek, 1995-yil 3-yanvarda “Pravda Vostoka” gazetasida A.X. Babaxodjayev haqida chop etilgan maqola) 1999-yilda uning o‘g‘li M.A. Babaxodjayev tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxiviga topshirilgan. Shu yilning o‘zida hujjatlar ilmiy-texnik jihatdan qayta ishlanib, 1-raqamli ro‘yxat tuzilgan. Unda jami 226 ta yig‘majild mavjud bo‘lib, ular quyidagi tizim asosida tartiblashtirilgan: A.X. Babaxodjayevning ilmiy ishlari, A.X. Babaxodjayevning ilmiy va xizmat faoliyatiga oid materiallar, A.X. Babaxodjayevning biografik materiallari, yozishmalar, **A.X. Babaxo‘jayev haqidagi maqolalar, devoriy yozuvlar, boshqa mualliflarning materiallari[6].**

R-2851 fondda 370 ta yig‘majild bo‘lib, tarix fanlari doktori *Tamara Grigoryevna Abayevaning* faoliyatiga oid hujjatlar mavjud. 1951-yilda Toshkent shahridagi O‘rta Osiyo Davlat universiteti (O‘zMU)ning Sharqshunoslik fakultetini tamomlagan. 1956-yildan O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimi lavozimida faoliyatini davom ettirgan.

T.G. Aboyevaning 1951–1993-yillar davomida to‘plagan hujjatli materiallari 1999-yilda Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutiga topshirilgan. Ular jami 370 ta hujjatdan iborat bo‘lib, quyidagi tartibda tavsiflangan: G.Aboyevaning ilmiy ishlari, T.G. Aboyevaning ilmiy-xizmat faoliyatiga oid materiallar, T.G. Aboyeva haqidagi bibliografik materiallar, yozishmalar, xizmat yozuvlari, faxriy yorliqlar va diplomlar, boshqa shaxslarning hujjatlari[7].

R-2855 fondida 83 ta yig‘majild bo‘lib, tarix fanlari doktori, professor *Lev Vladimirovich Gentshkening* 1932–1998-yillarga oid hujjatlar mavjud. 1951–1961-yillarda L.V. Gentshe avval filologiya, keyinchalik tarix fakultetining dekani bo‘lib ishlagan. 1952-yilda unga dotsent ilmiy unvoni berilgan. 1961-yildan boshlab gumanitar fakultetlar bo‘yicha prorektor, 1968–1970-yillarda esa universitetning birinchi prorektori bo‘lgan. 1964-yilda tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasini himoya qilgan.

L.V. Gentshkening 1932–1998-yillarga oid hujjatli materiallari 2000-yilda uning qizi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi arxiviga topshirilgan. Otasi Valeriy Lvovich Gentshkening hujjatlari bilan birga uning onasi – Mioni Marionella Vladimirovna, O‘zbekiston SSRda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi materiallari ham topshirilgan. O‘sha yili topshirilgan materiallar ilmiy-texnik jihatdan qayta ishlanib, 63 ta yig‘majilddan iborat ro‘yxat tuzilgan va ular quyidagi tizim asosida tartibga solingan: L.V. Gentshkening ilmiy ishlari, xizmat faoliyatiga oid materiallar, biografik materiallari, unga yuborilgan xatlar va telegrammalar, L.V. Gentshke haqidagi maqolalar, taqdirlash hujjatlari, M.V. Mioni, L.V.Gentshening rafiqasiga oid materiallar[8].

R-2866 fondida 97 ta yig‘majild bo‘lib, tarix fanlari nomzodi *Geliy Leonidovich Dmitriyev* faoliyatiga oid shaxsiy hujjatlar mavjud. 1965-yil yanvar oyida G.L. Dmitriev O‘rta Osiyo davlat universiteti tarix fakultetining “SSSR tarixi” kafedrasida assistent sifatida ish boshlagan. 1966-yil yanvar oyida u katta o‘qituvchi lavozimiga o‘tkazilgan, 1969-yil yanvar oyida esa unga dotsent ilmiy unvoni berilgan. G.L. Dmitriev mualliflar jamoasi tarkibida Toshkent davlat universiteti tarixini yaratish ishida ham faol qatnashgan.

G.L. Dmitrievning 1920–2001-yillarga oid hujjatli materiallari 2002-yilda uning rafiqasi S.A. Dmitrieva tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi arxiviga topshirilgan. O‘sha yili hujjatlar ilmiy-texnik jihatdan qayta ishlanib, №-1 ro‘yxat tuzilgan. Ushbu ro‘yxat jami 37 ta yig‘majilddan iborat bo‘lib, hujjatlar quyidagi tartibda tizimlashtirilgan: G.L. Dmitrievning ilmiy ishlari, G.L. Dmitrievning ilmiy ishlari uchun arxiv, adabiy va matbuot manbalaridan ko‘chirmalar, G.L. Dmitrievning ilmiy ishlariga berilgan taqriz va sharhlar, G.L. Dmitrievning pedagogik faoliyatiga oid materiallar, G.L. Dmitrievning ilmiy-xizmat faoliyatiga oid materiallar, G.L. Dmitrievning biografik materiallari, yozishmalar, bag‘ishlov yozuvlari, boshqa mualliflarning maqolalari, to‘plamlar[9].

R-2883 fonddagi 83 ta yig‘majildda tarix fanlari doktori, akademik *Yaxyo G‘ulomovich G‘ulomov* faoliyatiga oid shaxsiy hujjatlar jamlangan. Y. G‘ulomov birinchi o‘zbek arxeologi, O‘zSSRda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi. Ilmiy faoliyatini 1933–1940-yillarda O‘zbekiston qadimiy meros va san’at yodgorliklarini muhofaza qilish qo‘mitasi ilmiy xodimi va ilmiy kotibi sifatida boshlagan. Shu vaqtdan boshlab u arxeologik tadqiqotlar bilan shug‘ullanadi, ilmiy ekspeditsiya va razvedka ishlarida qatnashadi. Y.G‘ulomov 1940-yildan SSSR Fanlar akademiyasining O‘zbekiston filialida Tarix, til va adabiyot institutining arxeologiya bo‘limi mudiri bo‘lib ishlagan. 1943-yildan umrining oxirigacha O‘zbekiston SSR FA Tarix va arxeologiya institutining qadimgi va o‘rta asrlar bo‘limi mudiri bo‘lgan. 1956-yil 20-noyabrdan 1959-yil 25-oktabrgacha shu institut direktori lavozimida ham ishlagan.

Y. G‘ulomov bir necha bor sobiq Ittifoqning va respublika hukumatining turli nishon va medallari bilan mukofotlangan. 1988-yil 10-mayda O‘zbekiston hukumati qarori bilan Y. G‘ulomov xotirasini abadiylashtirish maqsadida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutiga, Toshkent ko‘chalaridan biriga uning nomi berildi.

Y. G‘ulomovning shaxsiy fondi uning qizi S. G‘ulomova tomonidan 2004-yilda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxiviga doimiy saqlovga topshirilgan. Shu yilning o‘zida hujjatlar ilmiy-texnikaviy ishlovdan o‘tkazilgan. Natijada 1931–2002-yillarga oid 83 ta yig‘majilddan iborat 1-son ro‘yxat tuzilib, yig‘majildlar quyidagi tizim asosida tartibga solingan: Y. G‘. G‘ulomovning ilmiy faoliyatiga oid materiallar, Y. G‘. G‘ulomovning O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya institutidagi faoliyatiga doir materiallar, shaxsiy hujjatlari, yozishmalar, yozgan maktublari, Y. G‘ulomovga kelgan maktublar, olim haqidagi maqolalar[10].

R-2888 fondida 363 ta yig‘majild bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi, tarix fanlari doktori, etnograf *Karim Shoniyozovich Shoniyozov* hamda rafiqasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi, tarix fanlari doktori, O‘zSSRda xizmat kursatgan fan arbobi, shaqshunos *Saboxat Azimjonovna Azimjonova* faoliyatiga oid hujjatlar mavjud. Karim Shoniyozov O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix institutida 1967–1973-yillar bo‘lim mudiri, 1999– 2000-yillar yetakchi ilmiy xodim lavozimlarida ishlagan. K.Sh. Shaniyozov “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” unvoni bilan taqdirlangan. 1994-yilda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining muxbir a’zosi, 2000-yilda esa haqiqiy a’zosi etib saylangan. O‘zbek xalqi etnogenezi, etnik tarixini o‘rganish bevosita Karim Shohniyozov nomi bilan bog‘liq.

Saboxat Azimjonova 1949-yilda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida katta ilmiy xodim, 1950–1977-yillarda institut direktori, 1977–1995-yillarda bo‘lim boshlig‘i sifatida faoliyat yuritgan.

R-2895 fondida 67 ta yig‘majild bo‘lib, tarix fanlari doktori *Petr Geronovich Kimning* 1953–2001-yillarga oid hujjatlar mavjud. Kim Pyotr 1952–1957-yillarda Moskva tarix va arxiv institutini tamomlagan. Tarixchi olim 1993-yilda “O‘zbekiston Respublikasi koreyslari” kitobi muallifi.

1991–2000-yillarda P.G. Kim O‘zbekiston Koreys madaniyat markazlari assotsiatsiyasiga rahbarlik qilgan. Ushbu davr mobaynida professor koreys xalqining milliy madaniyati, tili, an’analari va urf-odatlarini rivojlantirish, shuningdek, xalqlar o‘rtasidagi millatlararo hamjihatlikni mustahkamlash borasida katta ishlarni amalga oshirgan.

P.G. Kimning hujjatlari 2006-yilda uning qizi T.P. Kim tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxiviga topshirilgan.

Topshirilgan hujjatlar ilmiy-texnik jihatdan qayta ishlanib, 1953–2001-yillarni qamrab olgan 67 ta yig‘majilddan iborat 1-sonli ro‘yxat tuzilgan. Hujjatlar quyidagi tartibda tizimlashtirilgan: P.G. Kimning ilmiy faoliyatiga oid materiallar, P.G. Kimning xizmat faoliyatiga oid materiallar, P.G. Kimning biografik materiallari, yozishmalar, fotosuratlar, boshqa shaxslarning materiallari[11].

R-2928 fondida 485 ta yig‘majild bo‘lib, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi, tarix fanlari doktori *Raxima Xodiyevna Aminova*ning faoliyatiga oid hujjatlar mavjud. R.X. Aminova 1953–1957-yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya institutida ilmiy xodim, 1957–1993-yillarda bo‘lim mudiri, 1993-yildan yetakchi ilmiy xodim lavozimlarida faoliyat yuritgan. Ilmiy ishlari O‘zbekistonda sanoat ishchilari tarixi, agrar masala, xotin-qizlar harakati va boshqa mavzularga bag‘ishlangan. R.X. Aminova tadqiqotlarining yana bir muhim yo‘nalishi – O‘zbekistonda xotin-qizlar masalasining hal etilishi tarixi hisoblanadi[12].

2009-yilda R.X. Aminovaga tegishli hujjatlar ilmiy-texnik jihatdan qayta ishlangan va 1866–2001-yillarni qamrab oluvchi 485 ta yig‘majilddan iborat 1-sonli ro‘yxat tuzilgan.

1866-yilga oid hujjatlar orasida Turkiston qo‘shinlarining fotosurati, 2001-yilga oid hujjatlar orasida esa R.X. Aminovaning vafoti munosabati bilan bildirilgan hamdardliklar mavjud. Ana shu ikki sana fondning xronologik chegaralarini belgilagan.

Hujjatlar quyidagi tartibda tizimlashtirilgan: R.X. Aminovaning ilmiy va xizmat faoliyatiga oid materiallar, olima tomonidan ilmiy ishlar uchun to‘plangan materiallar, biografik materiallari, u haqidagi materiallar, uning ishlari bo‘yicha taqrizlar, xulosalar va annotatsiyalar, yozishmalar, boshqa shaxslarga oid materiallar[13].

Xulosa va takliflar. Shaxsiy arxiv fondlarini tahlil qilish asosida ilmiy tadqiqot olib borish tarixiy shaxslar, ularning faoliyati, ilmiy-ijodiy merosi, ijtimoiy aloqalari va muayyan davrning siyosiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarini chuqur o‘rganish imkonini beruvchi muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Shaxsiy arxiv fondlari rasmiy idoraviy hujjatlardan farqli ravishda, muayyan shaxsning hayoti va faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan hujjatlar majmuini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu sababli bunday fondlar tarixiy jarayonlarning shaxsiy, individual va ayrim hollarda rasmiy manbalarda aks etmagan jihatlarini ochib berishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shaxsiy fondlarni ilmiy muomalaga kiritish nafaqat bir shaxs faoliyatining tarixiy izini qayta tiklaydi, balki arxiv manbashunosligi taraqqiyotining poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Иофе В.Г. Личные фонды деятелей науки, изобретателей и деятелей просвещения XX в. в Национальном архиве Узбекистана // «История и архивы», 2024. (1). – С. 152-166.
2. Гентшке В.Л., Дорошенко Т.И. О личных фондах Центрального государственного архива Республики Узбекистан // «Вестник архивиста». 2005. – № 5–6 (89–90). – С. 82–96.
3. O‘zMA, R-2823-fond, 1-ro‘yxat, 5-10-betlar.
4. O‘zMA, R-2849-fond, 1-ro‘yxat, 4-6-betlar.
5. O‘zMA, R-2850-fond, 1-ro‘yxat, 182-yig‘majild.
6. O‘zMA, R-2850-fond, 1-ro‘yxat, 5-7-betlar.
7. O‘zMA, R-2851-fond, 1-ro‘yxat, 4-7-betlar.
8. O‘zMA, R-2855-fond, 1-ro‘yxat, 4-6-betlar.
9. O‘zMA, R-2866-fond, 1-ro‘yxat 4-7-betlar.
10. O‘zMA, R-2883-fond, 1-ro‘yxat, 5-9-betlar.
11. O‘zMA, R-2895-fond, 1-ro‘yxat, 4-5-betlar.
12. O‘zMA, R-2928-fond, 1-ro‘yxat, 336-yig‘majild, 9-bet.
13. O‘zMA, R-2928-fond, 1-ro‘yxat, 5-10-betlar.